

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
“TARMOQLAR IQTISODIYOTI” KAFEDRASI**

Qo‘lyozma huquqida
UDK:338.32.053.4

NORQULOV ODIL ABDURASULOVICH

**SANOAT ISHLAB CHIQRISH KORXONALARIDA ASOSIY
FONDLARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI
OSHIRISH YO‘LLARI**

**70310102–Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo‘yicha)
mutaxassisligi bo‘yicha**

magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan

DISSERTATSIYA

**Ilmiy rahbar:
Phd., dots. S.Karimov**

TOSHKENT – 2023

Magistrlik dissertatsiya ishi "Tarmoqlar iqtisodiyoti" kafedrasida
dastlabki himoyadan o'tgan. 45 - sonli bayonnoma
" 01 " 05 2023 y.

Ilmiy rahbar: Phd., dots.S.Karimov _____ 15.05.2023
imzo sana

Magistr: O.Norqulov _____ 15.05.2023
imzo sana

Dissertatsiya ishi Iqtisodiyot fakultetida 2023 yil " 18 " 05
№ 2107 raqami bilan ro'yxatga olingan.

"Himoyaga ruxsat etiladi"

"Tarmoqlar iqtisodiyoti" kafedrasida
mudiri dots. I.Xotamov _____
" 3 " " 05 " 2023 yil

Himoya Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida
2023 yil " 18 " 05 soat " 10⁰⁰ " da bo'ladi.

Annotatsiya

Sanoat korxonasi ishlab chiqarish darajasi hamda kuchi va fondlari yordamida yaratilgan asosiy fondlar ishlab chiqarish quvvatlarini shakllantirish va ulardan foydalanishga faol ravishda ta'sir ko'rsatuvchi mulk hisoblanadi. Butun xalq xo'jaligi miqyosida asosiy fondlar mamlakatning milliy boyligini tashkil qiladi.

Asosiy fondlar korxonada ishlab chiqarish fondlarining bir qismi bo'lib, ishlab chiqarish jarayonida uzoq vaqt ishtirok etada va o'zining natural-moddiy holatini yo'qotmaydi hamda o'z qiymatini tayyorlanayotgan mahsulotlarga qismlab o'tkazib beradi.

Korxonaning aktiv asosiy ishlab chiqarish fondlari eng harakatchan va ahamiyatli hisoblanadi. Fan-texnika taraqqiyoti davomida ko'plab korxonalarda aktiv ishlab chiqarish fondlarining salmog'i ortadi, ularning tarkibi va ko'rinishi o'zgaradi, asosiy fondlar guruh va turlarining ma'naviy eskirish tufayli almashinish sur'ati tezlashadi.

Ishlab chiqarish miqyosining o'sishi va boshqa ijobiy o'zgarishlar sharoitlarida, ba'zan korxonaning asosiy fondlari, jumladan, ishchi mashinalar va uskunalari, ishlab chiqarish binolari, qurilmalar va hokazolar etmay qoladi. Bunday hollar ro'y berganda korxonada shartnoma asosida o'ziga kerakli bo'lgan asosiy fondlarni yollaydi va ular ijaraga olingan hisoblanadi.

Magistrlik dissertatsiya ishida quyidagi asosiy masalalar hal etildi: sanoat korxonalarida asosiy fondlarning iqtisodiy mohiyati va o'ziga xos xususiyatlari, korxonada mahsulot ishlab chiqarishda asosiy fondlarning holatini belgilovchi ko'rsatkichlari tahlili hamda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda asosiy fondlardan foydalanish samaradorligini oshirish yo'llari bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqildi. Tadqiqotlar jarayonida ishlab chiqilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalarning amaliyotda qo'llanilishi sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda asosiy fondlardan foydalanish samaradorligini oshirishga zamin yaratadi.

Kalit so'zlar: sanoat korxonasi, ishlab chiqarish, asosiy fondlar, fan-texnika taraqqiyoti, aktiv ishlab chiqarish fondlari, shartnoma, mahsulot ishlab chiqarish.

Abstract

The level of production and power of an industrial enterprise and the main funds created with the help of funds are the property that actively affects the formation of production capacities and their use. At the scale of the entire national economy, the main funds constitute the national wealth of the country.

Fixed assets are a part of the enterprise's production assets, participate in the production process for a long time and do not lose their natural and material condition and partially transfer their value to the finished products.

The active capital production funds of the enterprise are the most mobile and important. During the progress of science and technology, the weight of asset production funds in many enterprises increases, their composition and appearance change, the rate of replacement of groups and types of main funds accelerates due to moral obsolescence.

In the conditions of growth of the production scale and other positive changes, sometimes the main funds of the enterprise, including working machines and equipment, production buildings, devices, etc., are insufficient. In such cases, the company hires the necessary capital funds on the basis of the contract, and they are considered rented.

The following main issues were resolved in the Master's thesis: the economic nature and characteristics of fixed assets in industrial enterprises, the analysis of indicators determining the state of fixed assets in the production of products at the enterprise, and ways to increase the efficiency of using fixed assets in the production of industrial products. recommendations were developed. The practical application of scientific proposals and practical recommendations developed in the course of research creates a basis for increasing the efficiency of the use of basic funds in the production of industrial products.

Key words: industrial enterprise, production, fixed assets, scientific and technical development, asset production funds, contract, product production.

MUNDARIJA

I BOB. KIRISH.....	8
1.1. Dissertatsiya mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi.....	8
1.2. Tadqiqotning maqsadi va vazifalari.....	9
1.3. Tadqiqotning asosiy muammolari va savollari.....	10
1.4. Tadqiqot ob'ekti va predmeti.....	10
1.5. Tadqiqot natijalarining ilmiy-nazariy va amaliy ahamiyati.....	11
1.6. Dissertatsiya tarkibining qisqacha tavsifi.....	11
II BOB. ADABIYOTLAR SHARHI.....	13
2.1. Adabiy manbalarda keltirilgan tadqiqot natijalari.....	13
2.2. Tadqiqot gipotezasi.....	23
III BOB. TADQIQOT METODOLOGIYASI.....	26
3.1. Ma'lumotlar manbalari.....	26
3.2. Tadqiqot dizayni.....	26
3.3. Tadqiqotda qo'llanilgan uslublar.....	27
3.4. Tadqiqotni o'tkazish uchun zarur sharoitlar.....	27
3.5. Tadqiqot jarayonida kutilayotgan muammolar va ularning yechimi.....	28
3.6. Tadqiqotdan kutilayotgan ilmiy va amaliy natijalar.....	28
IV BOB. TADQIQOT TAHLILI VA NATIJALAR.....	29
4.1. O'zbekiston sanoat korxonalarida asosiy fondlarning iqtisodiy mohiyati va o'ziga xos xususiyatlari.....	29
4.2. Sanoat korxonalarida mahsulot ishlab chiqarishda asosiy fondlarning holatini belgilovchi ko'rsatkichlari tahlili.....	37
4.3. Korxonada asosiy fondlardan foydalanish orqali mehnat unumdorligini oshirish ko'rsatkichlari tahlili.....	49
4.4. Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda asosiy fondlardan foydalanish samaradorligini oshirish yo'llari.....	55
V BOB. XULOSA VA TAKLIFLAR.....	63
5.1. Tadqiqotning asosiy ilmiy - amaliy yangiligi va natijalari.....	63
5.2. Tadqiqot natijasida keltirilgan asosiy tavsiya va takliflar.....	65
5.3. Kelgusi tadqiqotchilar uchun takliflar.....	65
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	67

I BOB. KIRISH

1.1. Dissertatsiya mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi”da “milliy iqtisodiyot barqarorligini ta’minlash va yalpi ichki mahsulotda sanoat ulushini oshirishga qaratilgan sanoat siyosatini davom ettirib, sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmini 1,4 baravarga oshirish; sanoatning yetakchi tarmoqlari va iqtisodiyotni yanada liberallashtirish hamda transformatsiya jarayonlarini yakunlash; yirik sanoat tarmoqlari va hududiy korxonalar o‘rtasida sanoat kooperatsiyasini rivojlantirish; sanoat tarmoqlarida mehnat unumdorligini oshirish dasturlarini keng joriy qilish; ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik jihatdan yangilash; mahsulot ishlab chiqarishni jadal rivojlantirish orqali sanoatni yanada modernizatsiya va diversifikatsiya qilish hamda tarmoqlararo sanoat kooperatsiyasini kengaytirish vazifalari belgilab berilgan¹.

Asosiy fondlarni ma’lum bir iste’mol qiymati ko‘rinishida ijtimoiy mehnat asosida yaratiluvchi, ishlab chiqarishning moddiy-buyumlashgan material omillari qatoriga kiritadi. Hozirgi bozor sharoitlarida korxonalar kuchi va fondlari yordamida yaratilgan asosiy fondlar ishlab chiqarish quvvatlarini shakllantirish va ulardan foydalanishga faol ravishda ta’sir ko‘rsatuvchi mulk hisoblanadi. Butun xalq xo‘jaligi miqyosida asosiy fondlar mamlakatning milliy boyligini tashkil qiladi.

Bugungi kunda korxonalarga investitsiyalarga jalb qilish asosida modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlashni yanada jadallashtirish, zamonaviy, moslashuvchan texnologiyalarni keng joriy etish. Bu vazifa avvalambor iqtisodiyotning asosiy tarmoqlari, eksportga yo‘naltirilgan va mahalliy lashtiriladigan ishlab chiqarish quvvatlariga tegishlidir. Sanoat korxonalarining asosiy fondlar bilan etarli darajada ta’minlanganligini o‘rganish

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son “2022 — 2026 yillarga mo‘ljallangan yangi o‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi” Farmoni. Toshkent sh., 2022